



## TASAVVUFİY TA'LIMNING MA'NAVIY TARBIYADAGI O'RNI

Satimova Sevinch Sardorbekovna  
Urganch Ranch texnologiya Universiteti Pedagogika  
mutaxassisligi magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14808009>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> January 2025  
Accepted: 29<sup>th</sup> January 2025  
Published: 31<sup>st</sup> January 2025

#### KEYWORDS

*Tasavvuf, o'z-o'zini anglash, poklanish, ma'naviy tarbiya, tamaddun, meditatsiya, metodologiya, kamolot*

### ABSTRACT

*Mazkur ishda tasavvufda ma'naviy tarbiya metodologiyasi va uning pedagogik asoslari keng muhokama qilingan. Tasavvuf ma'naviyatini shakllantirishda individual va jamiyat darajasidagi ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik usullar va uslublarni tahlil qilingan. Shuningdek, ma'naviy tarbiyaning maqsad va vazifalari, zamonaviy ta'lim tizimida tasavvuf tarbiyasi metodlarini qo'llashning imkoniyatlari yoritilgan.*

### Kirish

Tasavvuf musulmon olamining ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadigan soha bo'lib, insonni o'z-o'zini anglash, poklanish va ruhiy kamolotga erishishga yo'naltiradi. Tasavvufiy ta'limning ma'naviy tarbiyadagi o'rni insoniyat tamadduni davomida doimiy ahamiyat kasb etib kelgan. Zamonaviy jamiyatda esa tasavvufning ta'limiy-pedagogik ahamiyatini o'rganish zarurati kun sayin ortib bormoqda. Boy, rang-barang mumtoz she'riyatimizning asl tarovat-u purma'nolarini to'g'ri idroq qilmoq uchun tasavvuf ta'limotidan xabardorlik, tasavvuf istilohlarini bilishimiz zarur. Ushbu ishda tasavvufiy ma'naviy tarbiya metodologiyasi va uning pedagogik asoslarini tahlil qilish orqali, bu sohaning ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilash maqsad qilingan. Shu bilan birga, tasavvufiy metodlarning bugungi kunda yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi roli ham o'rganiladi. Tasavvuf – ham ruhan, ham jismonan pok bo'lish, bularga maxsus riyozat bosqichlari orqali yetib boorish yo'lidir. Abu Rayxon Beruniy "Tasavvuf" so'zining lug'aviy ma'nosini "faylasuf" so'zidagi "suf" so'zi bilan bog'laydi. So'fiy so'zi ham "so'f"dan yasalgan, "Tasavvuf", "mutasavvuf" so'zlari bilan o'zakdoshdur. Tasavvuf va diniy ta'limotga ko'ra har bir narsani bilguvchi, bildirguvchi, yo'lga soluvchi hamda yo'ldan ozdirguvchi, foydaga ham zararga ham yetishtirguvchi, beruvchi va oluvchi ham Oллоhdir. Inson ko'nglini Oллоhga bag'ishlab yo'lda to'g'ri yurmog'i kifoya. Komil inson darajasiga eltuvchi amallarga rioya qilsa, Komil inson bio'mog'i uchun yo'llarni ochguvchi ham Oллоh Taolodir. Biroq bu amallarni bajaruvchisi inson zotining o'zidir. U yo'ldan ozmay tasavvufning to'rt bosqichidan o'ta olsa u Oллоhga yaqinlashadi va uning jamoliga yetishmoqlik shunchalar yaqin bo'ladi.

Tasavvufda ma'naviy tarbiya metodologiyasi insonning ichki dunyosini shakllantirish va ruhiy kamolotga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda quyidagi jihatlar alohida o'rin tutadi:

1. Ma'naviy kamolot yo'li Tasavvufda ma'naviy kamolotga erishish "maqomlar" va "halatlar" orqali amalga oshadi. Bu jarayon "nafsni poklash", "ruhiy halovatga erishish" va "Allohga

yaqinlashish” kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bunda shayx-murshid va murid o‘rtasidagi pedagogik munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Tarbiyaning pedagogik asoslari: Tasavvufiy tarbiya jarayonida quyidagi asosiy pedagogik tamoyillar amal qiladi:

-- Individual yondashuv: Har bir shaxsning individual fazilatlari va imkoniyatlarini inobatga olish.

-- Amaliy o‘rganish: Amaliy zikr va ibodatlarini doimiy bajarish orqali bilim va mahoratni oshirish.

-- Murabbiylik: Murshid yoki murabbiyning shaxsiy namunasi orqali ta’sir ko‘rsatish. Zamonaviy ta’limdagi tasavvuf metodlari: Zamonaviy pedagogikada tasavvufning ma’naviy tarbiya metodlaridan foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin: Axloqiy tarbiyada tasavvufiy qadriyatlarni singdirish. Meditatsiya va tafakkur amaliyotlari orqali o‘quvchilarning stressga qarshi chidamliligini oshirish. Ta’lim jarayonida tasavvufiy asarlarni tahlil qilish orqali ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish. Tasavvufiy qadriyatlarning tarbiya jarayonidagi o‘rni: Tasavvufiy qadriyatlar – sabr, shukr, tavakkul, ixlos kabi sifatlar – yosh avlodning ruhiy va axloqiy tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu qadriyatlarni singdirish orqali inson o‘zining ichki dunyosini boyitadi va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Tasavvufiy ilm va asarlarning ta’limdagi roli: Turkiy adabiyotda tasavvuf ta’limoti Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan boshlab ifodalana va rivojlana boshlagan. Tasavvuf tarixida yozilgan buyuk allomalarning asarlari – Al-G‘azzoliy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy va boshqalar – zamonaviy ta’limda axloqiy va ruhiy tarbiyani shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Bu asarlar orqali o‘quvchilarga nafaqat ma’naviyat, balki ijtimoiy mas’uliyat hissi ham singdiriladi. Buyuk mutasavvuf shoir, “shayxul mashoyix”, “sultonul orifin” kabi maqomlarga ega bo‘lgan Ahmad Yassaviyning pirlilik maqomi shu darajada yuqori bo‘lganki, xalq orasida “Madinada Muhammad, Turkiyustonda Xo‘ja Ahmad” deb e’tirof etganlar. Yassaviy mutasavvuf – pir sifatida ilm-fanga alohida e’tibor qilgan. U o‘z masjidi peshtoqiga “Talabul ilm farizatun ala kulli musulmin va muslimatin” ya’ni “Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” degan hadisni yozdirib qo‘ygan. Shundan bizga ma’lumki, bu ulug‘ zot o‘zini musulmon deb bilgan har bir inson ilm olishligi lozimligini ta’kidlagan. Ahmad Yassaviy she’riyatidagi obrazlar tuzilishi jihatidan tasavvuf ta’limoti hamda xalq og‘zaki ijodi an’analariga xos va chambarchas bog‘lanib ketgan. Shoir she’rlarida uchraydigan “pir, darvesh, oshiq, obid, zohid, ishq, oqil, tolib, rasul, ummat, ishq, shayton, iymon” singari timsollar tasavvuf bilan, “o‘q, yo‘l, rabot” kabi timsollar xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Shoir uchun Qur‘on, hadis va umuman diniy ma’rifat yetakchi xususiyat hisoblanadi. Yassaviy ishq ilohiyini rasmiy shariat doirasidan uzoqlashmagan holda sharxlagan. Adib asarlarida xayotning barcha bosqichlari “shariat”, “tariqat”, “ma’rifat”, hamda “haqiqat” dan iborat degan tasavvufona g‘oya o‘z ifodasini topgan.

Tasavvuf ta’limotida eng ko‘p qo‘llaniladigan istilohlar quyidagilar:

1. Ma’shuqa – Alloh, payg‘ambarimiz Muhammad Alayhissalom, komil inson; pir(ustoz); do’st ma’nosida.
2. Ishq – tasavvuf she’riyatida nafsni yengish quroli bo‘lib, u ikki xil: a) majoziy(insoni muhabbat), b) boqiy va o‘lmas ishq (insonning allohga ishq).
3. May, sharob – Allohning ishq.
4. Boda – iymon

5. Soqiy, piri mayxona, piri ishq – ma'naviy ustoz, pir, ma'rifat ulashuvchi.
6. Darvesh (qalandar) – Haqqa oshiq bo'lgan, uning visoliga erishmoqni o'ziga vazifa qilib qo'ygan, dunyoning barcha huzur-halivati-yu aysh-ishratidan, orzu havasidan voz kechib, Haqni izlab, kezib yuruvchi so'fiysiyrat kishi.
7. Butxona, xarobat, mayxona – oqil, dono, kamolotga yetgan kishilarning ilohiyot, ishq haqida majlis quradigan, Alloh nomi muttasil zikr etiladigan joy.
8. Nafs – asosan, iymon, ahloqning bosh dushmani, inson tabiatidagi salbiy xohishlarni, yomon xislatlarni tajassum etuvchi kuch.

**Xulosa** Tasavvufda ma'naviy tarbiya metodologiyasi insonning ruhiy va axloqiy kamolotiga xizmat qiladigan boy madaniy va ta'limiy merosdir. Zamonaviy ta'lim jarayonida bu metodlardan foydalanish o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitishga, ularda yuqori axloqiy fazilatlarni shakllantirishga imkon yaratadi. Shuningdek, tasavvufning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yosh avlodning tarbiyasi va ijtimoiy faoliyatidagi muhim yo'nalishlarni belgilab beradi. Shu sababli, tasavvufiy tarbiya metodologiyasi va uning pedagogik asoslarini chuqur o'rganish, uni amaliyotga tatbiq etish kelajak avlod tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-G'azzoliy. "Ihyo Ulum ad-Din". – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
2. Ahmad Yassaviy. "Devoni Hikmat". – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Jaloliddin Rumi. "Masnaviy". – Toshkent: Adolat, 2010.
4. Ziyov Kavrak. "Tasavvuf va pedagogika". – Istanbul: Inshon Neshriyat, 2012.
5. Karimov A. "Tasavvuf: falsafa va ma'naviyat". – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
6. S.Matchonov, Sh.Sariyev. "Adabiyot" Toshkent. 2012.
7. Nasr S. H. "Islamic Science and Spirituality". – Cambridge: Harvard University Press, 1987.
8. Abdurahmon Jomiy. "Lison ut-Tayr". – Toshkent: Fan, 1999.
9. Bahouddin Naqshband. "Ma'rifatnoma". – Buxoro: Buxoro Noshir, 2001.